

ALISHER NAVOIYNING “LAYLI VA MAJNUN” ASARIDAGI AYRIM SO‘ZLARNING GENEALOGIK TAHLILI

Yo’ldoshev Ibrohim Jo’rayevich

*Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy
pedagogika universiteti filologiya fanlari
doktori, professor.*

E-mail: ibrohimiuldoshev0101@gmail.com

G’anijonova Shaxlo Tohirjon qizi

*Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy
pedagogika universitetining filologiya
fakulteti o’zbek tili va adabiyoti
yo’nalishi I - bosqich talabasi.*

E-mail: shaxloganijonova76@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodi ichida sof sevgi va qahramonlarning dard va kechinmalariga asoslangan va mashhur asarlaridan bo’lgan “Layli va Majnun” asaridagi b’azi so’zlarning genealogik tahlilini ko’rishingiz mumkin. Asardagi so’zlarning tarixdagi o’rni ya’ni Navoiy davrida qanday ma’nolarni anglatgani va bugungi kunga qanday tabdil qilinishi haqida fikr yuritilgan. So’z mulki sultonining asaridagi so’zlarni nafaqat lug’aviy tahlili, balki u so’zlar orqali asarni qanday boyitilgani haqida ham aytib o’tamiz.

Kalit so’zlar: Alisher Navoiy, “Layli va Majnun”, so’z boyligi, falsafiy mazmun, poetik ohang, ma’naviy yetuklik, ruhiy poklik.

Аннотация. В данной статье анализируется творчество великого мыслителя Алишера Навои, основанное на чистой любви и переживаниях героев. В частности, автор проводит генеалогический анализ отдельных слов в произведении «Лейли и Маджнун». Рассматривается исторический контекст значений слов во времена Навои, а также их трансформация в современном языке. Кроме того, исследуется, как словарное богатство способствует художественной выразительности произведения и обогащает его содержание.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Лейли и Маджнун», богатство речи, философское содержание, поэтическое звучание, духовная зрелость, душевная чистота.

Abstract. This article examines the work of the great thinker Alisher Navoiy, focusing on themes of pure love and the experiences of his characters. In particular, the author provides a genealogical analysis of certain words in the work “Layli and Majnun”. The historical context of these words during Navoiy’s time, as well as explores how the richness of vocabulary contributes to the artistic expression of the work and enhances its content.

Keywords: Alisher Navoiy, “Layli va Majnun”, vocabulary richness, philosophical meaning, poetic tone, spiritual maturity, purity of soul.

O'zbek namoyandalaridan biri hisoblangan Mir Alisher Navoiy o'z davrining o'ziga xos shoirilaridan biri bo'lishi bilan birga, o'zidan keying avlodlarga ham o'zgacha ta'sir o'tkazgan. Uning asarlari va qarashlari, ayniqsa, tasavvufiy va falsafiy jihatlarini, o'zbek va boshqa markaziy xalqlarning adabiyoti va madaniyatining rivojiga katta hissa qo'shgan. Navoiy o'zining asarlari orqali milliy g'urur va ruhiy ozodlikni targ'ib qilgan. Navoiy ishq-muhabbat bo'yicha ham ko'plab asarlar yozgan. Uhaqiqiy muhabbatni nafaqat jismoniy, balki ruhiy va ilohiy sevgi sifatida tasvirlab, bu orqali haqiqiy ma'nosi qanday ekanligini tushuntirgan. A.K. Sattorov Navoiy haqida: "Navoiy o'zbek adabiyotining eng buyuk shoiridir. Uning asarlari nafaqat go'zalligi bilan, balki axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilishidagi roli bilan ham alohida ahamiyatga ega" —deb aytgan. Alisher Navoiyning "Xamsa" asarini uchinchi dostoni bo'lgan "Layli va Majnun" fors-turkiy dostonidir. Ushbu doston 1484-yilda yozilgan bo'lib, u 38 bob 3682 baytdan iborat. Shundan 9 bobni muqaddima tashkil qiladi. Doston an'anaviy hamd—Allohga hamd bilan boshlanadi. Asarning asosiy g'oyasi—haqiqiy sevgi insonni ruhiy kamolot sari yetaklaydigan, uni poklaydigan va Allahga yaqinlashtiradigan ulug' tuyg'u ekanligidir. Navoiy Layli va Majnunni sof, samimiy va fidokorona sevgisini tasvirlar ekan, bu muhabbatni oddiy va dunyoviy ehtiros emas, balki ma'naviy yuksalish, ruhiy izlanish yo'li sifatida ko'rsatadi. Doston orqali shoir insonni sadoqat, sabr, vafo, poklik, mardlik kabi oliy fazilatlarga chorlaydi. Majnunni Layliga bo'lgan cheksiz muhabbati uni dunyo tashvishlaridan yiroqlashtiradi, shu yo'l bilan u ilohiy haqiqatni anglash darajasiga yetadi. Shu tariqa, Navoiy muhabbatni insonni allohga yaqinlashtiruvchi, qalbni yovuzlikdan, g'urur va nafsdan tozalovchi eng ulug' kuch sifatida talqin etadi. Shuningdek, doston jamiyatdagi illatlar: insonlar orasidagi adolatsizlik, boylik va mansab ortidan quvish, muhabbatni qadrlamaslik kabi holatlarni ham tanqid qiladi. Shu bilan birga, asarda ayollarning sadoqati, pokizaligi va mehr-muhabbatda mustahkamligi yuksak darajada ulug'lanadi. Umuman olganda "Layli va Majnun" dostoni Navoiy ijodida insoniy va ilohiy muhabbatni uyg'unlashtirgan, insonni ma'naviy yetuklik va ruhiy poklik sari chorlovchi asar sifatida yuksak falsafiy mazmunga ega.

Alisher Navoiy bu asaridagi ayrim so'zlar hozirgi kunda foydalanilmay qo'yildi. Bunga sabab yangi so'zlarning paydo bo'lishi va odamlarni so'zlashda boshqa tildan kirib kelgan so'zlarni qo'llashlarini ayta olishimiz mumkin, albatta. Endi Navoiy o'z asarida qo'llagan va hozirda qo'llanilmaydigan so'zlarga misollar ko'rishingiz mumkin, u so'zlarni qanday chuqur ma'noga ega ekanligi va bugungi kunda shu so'zlarning o'rniga qanday so'zlardan foydalanilayotganini guvohi bo'lasiz.

Sarog'oz [سراغز] so'zi forschadan o'zlashgan bo'lib, "muqaddima", "kirish qism" va "boshlanish" degan ma'nolarni anglatadi. Shuning uchun ham bu so'z asarni boshlanish qismida yozilgan. Hozirgi kunda bu so'zning izohli lug'atda muqobil variant yo'q, lekin "muqaddima" so'zi shunga to'g'ri keladi.

Ey yaxshi oting bila sarog'oz

Anjomig'akim yetar og'oz⁴²

Xirad [خرَد] forsha so'z. Uning tarjimasi “aql” va “fikr” hisoblanadi. Bu so'zni Navoiyning “Nazm ul-javohir” asarida ham uchratamiz. Xirad so'zi hozir yo'q, ya'ni foydalanilmaydi. Asarda bu so'zning sinonimini ham uchratamiz, u arabcha “roy” [رُوي] so'zidir. Mazkur so'z asarda “xiraddin ozod” [آزاد دین خرد] birikmasi shaklida kelgan “aqldan ozgan” yoki “hayoli joyidamas” degan ma'noni keltirib chiqargan.

Lang [f. لَنگ] bu so'zning ma'nosi “oqsoq”, “cho'loq” hisoblanadi. Asarda kuhan [كهن] “eski”, “qadimgi” sifati bilan sifat+sifat shaklida kelib, “kuhan lang” [لَنگكهن] ya'ni “og'ir”, “qimirlamaydigan” tarjimasini beradi. Hozirgi o'zbek adabiy lug'atida ushbu so'z mavjud emas.

Gardunni sen aylading sabuk sang

Davronni sen aylading kuhan lang⁴³

Kahkashon [كهكشان] qadimda juda ko'p qo'llangan bo'lib, “somon yo'li” ma'nosini anglatuvchi so'z sifatida foydalanilgan. Bu so'z kah ya'niki “somon” ot so'z turkumi va kashon “tortadigan” sifat so'z turkumidagi so'zlarning qo'shilishidan kelib chiqqan. Kahkashon so'zi hozirgi zamon fors (Eron), dari (Afg'oniston) va tojik tillarida ham ishlatiladi. U zamonaviy ilmiy va adabiy qilda quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi:

- Astronomiyada: “galaktika” yoki “somon yo'li galaktikasi”
- She'riyat va adabiyotda: go'zal, ulug'vor yoki tuksak narsalami ifodalash uchu metafora sifatida ham ishlatiladi.

Sargashtaliq [f. سرگشتگی] bu so'zning asosi sargashta [سرگشته] ma'nosi “boshi aylangan” va “sargardon” [arabcha] (sargashta) so'zi hozirgi zamon fors (forsiy) tilida ham ishlatiladi, lekin u ko'proq adabiy yoki poetik ohangga ega. Odamlar so'zlashuvda kamdan-kam holatlarda foydalanishadi. Biz bu so'zni “Lison ut-tayr” asarida ham quyidagi misralarda uchratishimiz mumkin:

Buki har bo'ston aro sargashtasen,

Qon bila tufrog'ga og'ushtasen.⁴⁴

Fosiq [فاسیق] so'zi arabchadan olingan bo'lib “yomom ishlar qiluvchi” ma'nosini ifodalaydi. O'zbek tili izohli lug'atida “axloqsiz” tarjimasiga to'g'ri keladi.

Xonumonso'z [سخنخوش] “bor yo'g'ini qo'ydiruvchi” degan ma'noni anglatadi. Lekin uning asosi xonumon [خانمان] “uy-joy” va “uy jihozlari” ma'nosini ifodalaydi.

Ey ishq o'tin aylagan jahonso'z

Har bir shararini xonumonso'z.⁴⁵

Asarda bir so'zning ham fors tilida, ham arab tilidagi ma'nolari ko'p uchraydi. Bunga misol qilib, “oy” so'zini olishimiz mumkin. U arab tilida qamar [قَمَر] va fors tilida mah [مه]. Biz

⁴² Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. To'qqizinchi tom. Xamsa. Layli va Majnun. –T.: Fan nashriyoti, 1992. –B.2

⁴³ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. To'qqizinchi tom. Xamsa. Layli va Majnun. –T.: Fan nashriyoti, 1992. –B.5

⁴⁴ <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/456-lison-ut-tayr-i-qism-alisher-navoiy.html>

⁴⁵ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. To'qqizinchi tom. Xamsa. Layli va Majnun. –T.: Fan nashriyoti, 1992. –B.2

bundan asar juda ham mukammalilik bilan yozilganini va unda soʻz takrorlaridan foydalanilmaganini koʻrishimiz mumkin.

Javomi [مُؤَدَّب] ushbu soʻz arabchadan oʻzlashtirilgan boʻlib “toʻplovchilar” , “oʻz ichiga oluvchilar” degan maʼnoni anglatadi. Lekin u asarda javomiul-kalim [الكلم جَوَامِعُ] shaklida kelgan va “oʻzi qisqa, lekin chuqur maʼnoli soʻzlarni oʻz ichiga olgan” degan maʼnoni izohlaydi.

Muaddab [مُؤَدَّب] oʻzining kelib chiqishi arabcha boʻlib, adab “odob” va mu “-li” asosga qoʻshilishi orqali hosil boʻlgan. “Odobli”, “tarbiya koʻrgan” degan maʼnoni anglatadi.

Atfoli [a. أَطْفَالِي] soʻzi “bolalar” , “goʻdaklar” degan maʼnoni beradi. Ammo bu soʻz asarda atfoli junun [أَطْفَالِي جُنُونُ] birikmasida kelib, “bolalarcha jinnilik” degan tarjimada keladi.

Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostoni nafaqat oʻzbek mumtoz adabiyotining durdonasi, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham beqiyos manba hisoblanadi. Asarda qoʻllangan soʻzlarning genezesi, yaʼni kelib chiqishi, semantik oʻzgarishlari va uslubiy vazifalarini tahlil etish Navoiy tilining boyligi, arabcha va forsha qatlamlarning oʻzbek tiliga qanday uygʻunlashganini chuqur anglash imkonini beradi. Doston tilida arab va fors tillaridan kirib kelgan soʻzlar nafaqat leksik boylik sifatida, balki badiiy maʼnodoshlik, ohangdorlik va obrazlilikni taʼminlovchi vosita sifatida xizmat qilgan. Masalan, “junun” , “atfol”, “muaddab” kabi soʻzlar oʻz ildizlari bilan Sharq falsafasi va tasavvuf tafakkurining maʼnaviy qatlamlarini yoritadi. Navoiy bu soʻzlarni ona tilining fonetik va morfologik tizimiga moslab, ularga yangi semantic jilo baxsh etgan. Shuningdek, doston tili orqali Navoiy turkey tilning salohiyatini namoyon etgan, oʻz asarlari bilan arabcha-forscha unsurlarni turkey ifoda bilam uygʻunlashtirib, oʻzbek adabiy tili taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan. Shu tariqa, “Layli va Majnun”dagi soʻzlar genezisini oʻrganish – bu faqat leksik emas, balki Navoiy ijodining badiiy-estetik, falsafiy va madaniy ildizlarini anglash yoʻlidagi muhim ilmiy qadamlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. Yigirma tomlik. Toʻqqizinchi tom. Xamsa. Layli va Majnun. –T.: Fan nashriyoti, 1992. –377b.
2. Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir. XV tomlik. XV tom. –T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. –844b.
3. Navoiy asarlari lugʻati. –T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1972. –784b.
4. Oʻzbek tilining izohli lugʻati – A-1. –T.:davlat ilmiy nashriyoti, 2019. –107b.
5. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. IV jildli II jild. –T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2019. –671b.
6. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. IV jildli III jild. –T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2019. –844b.